

TOSHKENT VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIDA EKOTURIZMNING O'RNI

*Ilmiy rahbar: Yusupova Nasiba Abdujabbarovna
Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent viloyatida ekoturizm, uning tarifi, ahamiyati, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida ekoturizmning o'rni hamda uni rivojlantirish yo'llari xususidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekoturizm, yashil turizm, tamoyillar, iqtisodiyot, rivojlanish, landschaft.

Аннотация: В данной статье Ташкентской области изложены взгляды на экотуризм, его тариф, значение, роль экотуризма в развитии экономики страны, а также пути его развития.

Ключевые слова: экотуризм, зеленый туризм, принципы, экономика, развитие, ландшафт.

Jahonda global muammolar: suv tanqisligi, iqlimni o'zgarishi, havoning ifloslanishi, ozon qatlamini yemirilishi, o'rmonlarni qisqarishi, aholini va avtomobillarni ko'payishi kabilar yuzaga kelmoqda. Ushbu zamonaviy inqirozli hodisalarni hisobga olgan holda, "inson-tabiat" tizimidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga imkon beradigan rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ekoturizm bo'lib, u so'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanmoqda[3].

Jahon turizmi industriyasiga yaqin kelajakda kirib kelgan Ekologik turizm tushunchasi o'tgan asrning oxirlaridan boshlab paydo bo'ldi.

Iqtisodiyotga sezilarli moliyaviy daromad keltirishi mumkin bo'lgan mazkur turizm turi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muhitda sayohatni amalga oshirish, tabiiy hududlarni ularga ziyon yetkazmagan holda o'rganish, tabiatning betakror, o'ziga xos maftunkorligidan zavq olish maqsadida hududlarda sayohatni amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yaxshilanishiga ko'maklashadi.

Bugungi kunda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biriga aylandi. Ekspertlarning fikricha, bu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi[4]. Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ortiq ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 770 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston ham boy tabiiy resurslar, betakror o'simlik va hayvonot olamiga ega. Ushbu salohiyatni asrash va ko'paytirish maqsadida ko'plab milliy dastur va loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Boisi, mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanishi nafaqat

tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish, balki iqtisodiy sharoitni yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Inson omili orqali tabiat qo'yniga sayohat, noyob hayvonot va o'simliklar dunyosi bilan tanishish, tog' va cho'qqilarni zabt etishdagi maroq hamda tabiat in'om etgan mo'jizalardan foydalanish, qushlarning turlarini o'rganish, shuningdek tabiiy ko'llar, buloqlar, sharsharalarni tomosha qilish bu ekoturizmdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlariga ega bo'lgan va bu borada raqobatbardoshligi yuqori mamlakatlardan hisoblanadi. Yuksak tog' cho'qqilarimiz, uch ming yillik insoniyat tamadduniga guvoh shaharlarimiz, cho'l va yashil vodiylarimiz, ming bir dardga shifo zilol suvlarimizning borligi ushbu sohani rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratib beradi. Mavjud imkoniyatlarda to'g'ri foydalanish uchun esa mamlakatimiz tabiatining xilma-xil va boy turistik rekreatsiya resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, tabiat va madaniyat meroslarini asrash va muhofaza qilish, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha tegishli dasturlar ishlab chiqish zarur.

Ekoturizm (yashil turizm) - antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shaklidir[1] . Ekoturizmning tamoyillarini "Xalqaro ekoturizm" tashkiloti ishlab chiqqan.

Bu tamoyillar jahondagi barcha davlatlarning rahbarlariga tarqatilgan bo'lib, har bir davlatlar ekoturizmni tashkil qilganda ushbu tamoyillarga amal qilish talab qilinadi:

- 1.Ekoturizm tabiatga qaratilgan va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan bo'lishi.
- 2.Ekoturizm ekologik barqaror rivojlanishga va yashash muhitimizga keltirilayotgan ziyonlarni minimallashtirishga asoslangan bo'lishi.
- 3.Ekoturizm ekologik ta'lim va ma'rifatga yo'naltirilgan bo'lib, tabiat bilan teng hamkorlikka asoslangan bo'lishi.
- 4.Ekoturizm mahalliy ijtimoiy madaniyatni saqlashga va yordam berishga asoslangan bo'lishi.
- 5.Ekoturizm faoliyat ko'rsatgan hududlarning barqaror rivojlanishini va iqtisodiy samaradorligini ta'minlashga asoslangan bo'lishi kerak.

O'zbekiston ekoturistik resurs va imkoniyatlarga juda boy. Turoperatorlik firmalari tomonidan "Toshkent-Chorvoq-Toshkent", "Toshkent-Bildirsoy-Chimyon-Toshkent", "Toshkent-Aydarko'l-Toshkent", "Toshkent-Zomin-Toshkent" kabi marshrutlarda o'tkazilgan ekoturlar, cho'l hududlardagi tuyadagi sayr, nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo turistlarining katta e'tibor va e'tiroflariga sazovor bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatayotgan turoperatorlik firmalari asosan, Chimyon-Chorvoq rekreatsiya zonasi doirasida faoliyat ko'rsatmoqda[5].

O'zbekistonga turistlarni jalb qiluvchi asosiy omil bu uning maftunkor tabiatidir, uning xilma-xilligidir. Sababi, O'zbekiston iqlimi va ob-havosi yil davomida dam olish hamda ekoturizmni rivojlantirish uchun qulayligi bilan ajralib turadi. Jumladan, geografik o'rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo'lgan, sanoat rivojlangan hamda aholi zich yashaydigan Toshkent viloyatida ekoturlarga talab yuqori. Chunonchi, viloyatning ekoturistik salohiyati yuqori bo'lib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Misol uchun, Bo'stonliq tumani o'zining ekoturistik salohiyati bilan viloyatning boshqa tumanlaridan ajralib turadi. Eng muhimi, hududda turizmning ayniqsa, ekoturizmning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Dam olish kunlari shahardan yiroq manzillarni izlagan sayyohlar Toshkent viloyatiga tashrif buyuradi. Mintaqa o'zining turistik salohiyati bilan yuqori turuvchi hududlardan sanalib, purviqor tog'lar, go'zal tabiati hamda sof havosi bilan turistlarni jalb qiladi. Bu yerda safari turizm uchun mo'ljallangan yovoyi tabiat, shuningdek ko'l va buloqlar mavjud. Eko turizm uchun mo'ljallangan bu kabi hududlarni viloyatda ko'plab sanash mumkin. Bo'stonliq va Ohangaronning moviy tog'lari, tabiat in'om etgan tabiiy ko'llari, jozibali tabiati xorijliklarni maftun etsa, Parkentning qir adirlaridagi takrorlanmas yashilliklari bahor-yoz fasllarida barchani o'ziga jalb etishda davom etadi.

O'zbekiston hududida YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan noyob milliy bog' mavjud. Bu bog' sayyoramizning haqiqiy mo'jizasi bo'lib, o'zining beg'ubor tabiati, ajoyib tabiiy va tarixiy qadamjolari bilan hayratga soladi. Ugom-Chotqol milliy bog'i 1990-yilda Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron tumanlarini o'z ichiga olgan Toshkent viloyati hududida tashkil etilgan. Ulug'vor tog'lar ko'p sonli daralar va kanyonlarni hosil qiladi hamda ular orasidan Pskom, Chotqol, Ugom va Ko'ksuv tog' daryolari oqib o'tadi[2].

Har yili bu yerga dunyoning turli burchaklaridan ko'plab sayyohlar va dam oluvchilar tashrif buyurishadi. Ayniqsa, milliy bog' hududidagi Chimyon, Bildirsoy, Xo'jakent, Parkent tog' oldi hududlari yilning istalgan faslida sayyohlar bilan gavjum.

Bo'stonliq tumanidagi "Chimyon", "Amirsoy", "Bildirsoy" tog'-chang'i kurortlari, "Xumson", "Tibet", "Chortoq" sanatoriy va davolash oromgohlari hamda boshqa ko'plab sayyohlik maskanlariga tashrif buyurishingiz mumkin, ular yil davomida, yoshidan qat'i nazar, barchani Ugom-Chotqol milliy bog'ining keng shifobaxsh tabiatida salomatlikni tiklash va saqlash uchun kutib olishga tayyor.

Agar 7-8 yil avval xorijlik mehmonlarning aksariyati O'zbekistonni Samarqand yoki Buxoro kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan bilgan bo'lsa, keyingi yillarda vaziyat o'zgargan. Ayni paytda Toshkent viloyati tashrif buyuruvchilar va o'zbekistonliklar orasida tobora ommalashib bormoqda.

2023 yilda bu yerga 463 mingdan ortiq, 2024-yilda esa milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. 2025-yilda ularning sonini 1,5 million kishiga yetkazish rejalashtirilgan.

Bunday ko'rsatkichlar hudud infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy shinam mehmonxonalar, dam olish maskanlari, sanatoriylar, mehmon uylari va yotoqxonalar, ko'ngilochar markazlar sonini ko'paytirish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq.

Ko'proq dam oluvchilar nostandart turistik marshrutlarni - turizm qishloqlariga yoki baliq fermalariga tashrif buyurishni tanlamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Toshkent viloyati katta turistik imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, viloyatning Chorvoq suv ombori qirg'oqlarida quyoshda toblanishingiz, Ugam-Chotqol tabiiy parki bo'ylab sayohat qilishingiz, sirli g'orlar, tog'li sharsharalar va oynadek toza ko'llarni o'zingiz uchun kashf etishingiz, shunidek Ugam, Chotqol va Pskom tezoqar soylarida suzib tushishingiz mumkin.

Qishki mavsumda esa viloyatning Amirsoy, Chimyon, Bildirsoy va Yangiobod tog'-chang'i dam olish maskanlarida dam olishingiz mumkin. Tog'-chang'i turizmining asosiy mavsumi noyabr oyidan mart oyigacha davom etadi. Muloyim iqlim, shamolning yo'qligi, chang'i poygasi va tez tushish uchun yo'laklarning ko'pligi tog'-chang'i sporti uchun ajoyib sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Raxmatulla Xaitboyev – “Ekologik turizm” Toshkent – 2018
2. Hamidov O.H., Norchaev A.N. – “Ekoturizm” Darslik Toshkent-2011
3. Marufdjan Usmanov – “O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishning ba'zi masalalari” Samarqand-2019
4. Pandemiyadan keyingi davrda turizmni barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo'nalashlari Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2021 yil 5-6 oktabr.
5. Bo'stonliq - Toshkent vohasi javohiri [Matn] .- Toshkent: Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2023.- 128 b.